

**KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TINGLAB
TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

Shukurova Mohira Bahodirovna

Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz 2 fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayeva Aziza Rahmatullayevna

Annotatsiya: Hozirgi jadallahib borayotgan davrda ingliz tilini o'rganish dolzarb muamollardan biri bo'lib kelmoqdqa. Shu boisdan ushbu maqola kichik maktab yoshidagi bolalarda, ingliz tilida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlanterish uchun bir necha xil usullar ko'rib, o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim metodi, tinglab tushunish ko'nikmasi, multimedia vositalari orqali o'rgatish.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish muhim masalardan biri bo'lib kelmoqda. Ingliz tilini o'rganish maktabgacha bo'lgan yoshidagi bolalardan boshlab o'rgatiladi. Zamon tezlashgani sari, ingliz tilini o'rgatishda ko'plab qiziqarli va samarali metodlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, ingliz tilidagi 4 ko'nikmadan biri bo'lgan, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlanterish uchun bir necha metodlar ko'rib chiqildi.

Ta'lim metodi. Talim metodi yoki usuli o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatları bolib, u o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini anglatadi. O'qitish metodlari talim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday kechishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o'qituvchisi har bir mashg'ulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni o'tishdan qaysi metodlardan foydalanish samarali boladi degan savol turadi. Darsda ko'zda tutilgan talimiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o'qituvchining o'z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o'zi yetarli emas. O'qituvchi, shuningdek, o'z tajribasi, o'zgalar tajribasiga suyangan holda dars o'tish metodlari ustida ham jiddiy bosh qotirishi kerak. Bunda o'qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay olishi hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati muhim o'rinni tutadi. Demak, metodlar o'zining obektiv va subektiv jihatlariga bolib, uning obektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyil va tariflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bolgan umumiy jihatlar aks etsa, subektiv jihatlariga pedagog shaxsi va talim oluvchilarining o'ziga xos xususiyatlari konkret shart-sharoitlarga bogliq bo'ladi. [¹].

Tinglab tushunish ko'nikmasi – bu ayniqsa chet tilining mohiyatini tushunish qobiliyatini korsatadigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Hozirgi kunda uzoq vaqt davomida tinglab tushunish qobiliyati pastligi bilan kurashayotgan odamlar ko'p. Shu boisdan, hozirda kichik yoshdan boshlab bu qobiliyatni bolalarda rivojlantirish davlat ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Multimedia vositalari orqali o'rgatish. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun qiziqarli va samarali usullarda ,multimedia vositalari orqali, turli xil quvnoq, inglizcha va sodda qo'shiqlar, multfilmlar, ertaklar va boshqa texnikalar orqali o'rgatish ancha qulay va samaralidir.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi tinglab tushunish mahoratini turli metodlar orqali rivojlantirish haqida so'z boradi.

Multfilmlar orqali o'rgatish. Til o'rganuvchilarga so'z boyliklarini oshirish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun dars davomida o'quvchilarga multfilmlar ko'rsatish va uning tahlilini birgalikda qilish bolalarda ingliz tilidagi tinglab tushunish ko'nikmalarini oshirishga katta yordam beradi. Chunki multfilmlarda

¹

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

keng qamrovli so'z boyliklari kashf qilinadi. Multfilmlar yoshlarda doimo qiziqish uyg'otib kelgan. Buning uchun o'qituvchi mavzuga mos qiziqarli film tanlay bilishi kerak.

Misol qilib , “ Robert Sahakayantsniyning multfilmlari”ni olsak ,bunda , multfilmlar bolaga ingliz tilining asoslarini o'rgatadi: harflar, raqamlar, tana qismlari, hayvonlar va qushlarning nomlari, ranglari va boshqalar. Bu bolani xorijiy til bilan tanishtirishning ajoyib usulidir.

“Gogo” multfilimi. Ingliz tilidagi subtitrlari(matnlari) bilan o'quv multfilmlari bir necha seriyadan iborat. Yosh tomashabinlar u bilan ingliz tilida muhim iboralarni o'rganadigan va kulgili vaziyatga tushib qolgan Gogo ajdaho haqidagi animatsion serial.

Musiqa va she'rlar orqali o'rgatish. Musiqa va she'rlar orqali bolada tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish ancha samara beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning darajasiga mos musiqalarni topa bilishlari kerak.

Misol qilib , “My family”, “Fruits”, ”A B C Alphabet song “ kabi bir qancha musiqalarni ko'rishimiz mumkin. Bu musiqalar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan.

“My family “ musiqasida bola oila a'zolari nomlari ingliz tilida qanday aytilishini o'rganadi. “Fruits” musiqasida ingliz tilidagi mevalar nomini oson o'rganishlari mumkin. Bu musiqalar asosan 5 – 6 yoshdagi endi ingliz tilini o'rganayotgan bolalarga mosdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , bugungi kunda yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi oshib bormoqda. Shu sababdan chet tillarini o'rganishdagi yangi metodlar ommalashmoqda. Ushbu maqolada chet tilini o'rganishning 4 ko'nikmalaridan biri bo'gan tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish haqida so'z boradi. Ushbu metodlardan foydalanish bolaning e'tiborini qaratishga, uni darsga qiziqtirishga, dunyo qarashini oshirishga va eng muhimi bolada tinglab tushunish qobiliyatini oshirishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://sg.docworkspace.com/d/sILeMh6DkAe7Mg6sG?sa=e1&st=0t/](https://sg.docworkspace.com/d/sILeMh6DkAe7Mg6sG?sa=e1&st=0t) “ Ilmiy ish asoslari fanidan o’quv- uslubiy majmua” – N.J.Sulaymonova, N.N.Zubaydova. 61- bet.
2. <https://www.forumdaily.com/uz/dlya-samyx-malenkix-9-multfilmov-dlya-izucheniya-anglijskogo-yazyka/>
3. KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O’QITISH METODLARI
<https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-yoshdagibolalarga-engliz-tili-o-qitish-metodlari/viewer>
4. <https://sg.docworkspace.com/d/sILeMh6DkAe7Mg6sG?sa=e1&st=0t>